



IJIRSET

International Journal of Innovative Research in
SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

e-ISSN: 2319-8753 | p-ISSN: 2347-6710



INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH

IN SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

Volume 11, Issue 3, March 2022

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INDIA

Impact Factor: 7.569



9940 572 462



6381 907 438



ijirset@gmail.com



www.ijirset.com

The Importance of Application of the Method "Virtual Excursion" in Improving the System and Content of Education

Mavjudah Ashurovna Tilakova¹

Jizzakh regional center for retraining and advanced training of public educators, Uzbekistan.¹

Head of the department "Educational technologies of pedagogy and psychology".

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

Abstract: Among the main features inherent in creative abilities are specific thinking, independent, confident, personal thinking; the transfer of knowledge, skills and skills acquired in finding a solution to a particular issue to the solution of others; the perception of an object in the unity of its parts, integrity; the ability to analyze and synthesize; the transfer of necessary information at the necessary time; to perceive, observe, radical change is also manifested in VS.

Key Word: the perception of an object in the unity of its parts, integrity; the ability to analyze and synthesize; the transfer of necessary information at the necessary time

TA'LIM TIZIMI VA MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISHDA "VIRTUAL EKSKURSIYA" METODINI QO'LLANILISHINING AHAMIYATI

Mavjudah Ashurovna Tilakova¹

Jizzax viloyati xalq ta'lifi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi¹

"Pedagogika va psixologiya ta'lif texnologiyalari" kafedra mudiri.

Pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: Kreativ qobiliyatga xos asosiy xususiyatlar qatoriga o'ziga xos tafakkur, mustaqil, dadil, shaxsiy fikr; muayyan masala yechimini topishda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini boshqalarini hal etishga ko'chirish; ob'ektni uning qismlarining birligida, yaxlitlikda idrok qilish; tahlil qilish va sintezlash qobiliyat; kerakli axborotni zarur paytda uzatish; turlicha idrok qilish, kuzatish, tekshirib borish; o'xshatish, ichki tuyg'uni (intuitsiyani) ishga solish; ajrata bilish, talqin qilish; ijodiy taxmin qilish va tasavvur etish; yakuniga yetkazish, takomillashtirish; aks ettirish, tubdan o'zgartirish kabilarda ham namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Kreativ qobiliyat, mustaqil, dadil, shaxsiy fikr, muayyan masala yechimini topishda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar

Bugungi zamon ta'lif tarbiya jarayonida faol ishtirok etilish bevosita dars sifat samaradorligini ko'tarish asosida yuqori natijalarga erishishga zamin bulmoqda. Mashg'ulot turlari o'quvchilarini mustaqil tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etib, ularda ijodiy fikr, kreativ tafakkur va qobiliyatni rivojlantiradi. Bularning barchasi "O'zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklarini kreativ o'rganish" mavzusidagi sinfdan tashqari mashg'ulotlar mualliflik dasturining o'quv faoliyati samaradorligini ta'minlashiga, o'quvchilarida kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev o'quvchi yoshlarni zamon talablariga muvofiq yangicha ishlash va fikrashga izlanish, tashabbuskorlik va tadbirkorlikka chaqirmaqda. Shu sababli ta'lif tizimi va mazmunini takomillashtirish, uni real hayotga yaqinlashtirish, shuningdek, yoshlarda intellektual-ijodiy rivojlanish; ijtimoiy-kommunikativ qobiliyatni o'stirish lozimdir.

O'tgan vaqt mobaynida ta'lif amaliyotida ushbu vaziflarni hal etishda birmuncha yutuqlarga ham erishildi. Xususan, maktablarda tarixiy-madaniy merosni o'rganish bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarini ijodiy faoliyatga yo'naltirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Buyuk mutafakkirlar: al-Xorazmiy, imom Buxoriy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Ogahiy va boshqa buyuk ajdodlarimiz, shuningdek, Mahmudo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvarlar pedagogik merosi madaniy-ma'rifiy

tarbiyaning asosini tashkil qiladi bu zamona viy yetuk shaxsni shakllantirishning ishonchli yo'nalishidir. Shu bilan birga o'quvchilarning

ma'naviy intellektual-ijodiy rivojlanishida xalq pedagogikasidan foydalanish faollahashdi.

Umuman olganda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning aniq texnologiyasiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- o'quvchilarning emotsiyonal-hissiy kayfiyatiga e'tibor berish; bunda ularning kreativlik qobiliyatlarini va imkoniyatlaridan, ayniqsa, intellektual-ijodiy qobiliyatlaridan foydalanish;

- tarixiy-madaniy bilimlarni o'rganish davomida o'quvchilarni faol intellektual-ijodiy jarayonga jalg qilish orqali ularning mos intellektual-ijodiy mahsulot ustida ishlash jarayonida o'z kreativligini rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirishiga erishish;

- faol o'quvchilarni alohida rag'batlantirish.

Demak, tadqiqotda amalga oshiriladigan pedagogik tizim quyidagilarga yo'naltiriladi:

- yuqori sind o'quvchilariga tafakkur yurtishning an'naviy sxemalaridan chetga chiqqan holda fikr yuritishga imkon yaratish, ularning qadimiy me'morchilik san'atiga oid muammoni idrok qilish, anglash orqali qo'yilgan masala va vazifalarni tez, dadil va haqqoniy tarzda hal qilishlariga erishish;

- O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosi bilan bog'liq turli o'quv va o'qishdan tashqari vaziyatlarda o'quvchilarning intellektual-ijodiy qobiliyatini faollashtirish;

- o'quvchiga o'zining yetarli darajada chuqur bilim va o'ziga xos fikrlashga egaligini namoyish qilish imkonini berish;

- o'quvchilarda kreativlikni "his etish" va ulardan faol foydalanish: muammo va masalani chuqur his qilish, tafakkur tezligi, aniqligi, o'zgaruvchanligi va dadilligi, tafakkur qobiliyatining o'ziga xosligi, tafakkurning ijodiyligi, texnologikligi, ijodiy faoliyat konstruktivligini rivojlanishiga kabilar.

Amaliyot sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarda tarixiy-madaniy idrok qilish, topshirilgan va erkin tanlov asosida mustaqil bajariladigan intellektual-ijodiy ishlar orqali egallangan bilim, tushuncha, taassurot va tasavvurlarning ortib borishini tasdiqlaydi. Demak, ushbu mashg'ulotlar mazmuni yuqori sind o'quvchilari shaxsida kreativlik qobiliyatini rivojlanishda ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega. Intellektual-ijodiy faoliyat haqiqatan ham o'quvchida kreativlik qibiliyatini rivojlanishning muayyan natijasi sifatida amalga oshadi. Bunda innovatsion didaktik shart-sharoitlar muhim o'rinni tutadi.

Ma'lumki, innovatsiya inglizcha "o'zgarish, yangilik kiritish" ma'nosini anglatadi. U mutlaq yangi yechim va g'oyalalar kiritish yo'li bilan ta'limga samarali tashkil etish yoki boshqarishga qaratiladi. Tadqiqot jarayonida innovatsion didaktik shart-sharoitlarni imkon qadar ta'minlashda ta'limga innovatsion metodlaridan keng foydalanildi. Shuningdek, zamona talablariga mutanosib innovatsion, noan'anaviy, an'anaviy metodlar hamda mualliflik texnologiyalaridan tashkil topgan qator didaktik metodlardan tizimli foydalanish mumkin.

Metodlardan tizimli foydalanishda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- * o'rganilayotgan tarixiy-madaniy materialning mazmuni mashg'ulotlarning tuzilmaviy-mazmundor asosi hamda ularning o'zaro mutanosibligi;

- * ilgarilovchi, murakkab yondashuvdan foydalanishning mumkinligi.

Innovatsion, noan'anaviy, an'anaviy metodlar hamda mualliflik texnologiyalarini qo'llashda ularning muayyan o'quv predmeti va didaktik tizim tarkibiga taalluqli ekanligi, o'quvchilar yosh xususiyatiga mosligi, ularning kreativlik qobiliyatlarini optimallashtira olishi, egallagan ijodiy ko'nikma va malakalarini takomillashtira olishi; kreativlik qobiliyatini rivojlanishga ko'maklashishi, mashg'ulotlar mavzusi, maqsadi va mazmuniga mosligi va mutanosibligi hisobga olinadi. Intellektual-ijodiy jarayonda reproduktiv, mahsuldor qobiliyatlarni safarbar qiladigan o'quvchilarning muammoli-qidiruv faoliyatini faollashtiradigan hamkorlik pedagogikasiga bevosita aloqador ta'limga metodlardan foydalanildi. Shuningdek, pedagogik tashkil qilish, boshqarish, pedagogik talab, to'g'rilash, nazorat va o'z-o'zini nazorat, rag'batlantirish va taqdirlash, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlanish kabi tarbiya metodlari ham keng qo'llanildi. O'zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklarini o'rganishga qaratilgan intellektual-ijodiy faoliyat jarayonida o'quvchilarga me'moriy yodgorliklarga kreativ munosabat qandayligini anglatishga yo'naltirilgan didaktik o'yinlar alohida o'rinni tutadi.

Bunday didaktik o'yin turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- improvizatsiya, xayol, ijodiy tasavvur (xayolan o'tmishdan zamona viylikka yoki aksincha zamona viylikdan o'tmishga tomon sayr etish);

- qadimiy rivoyat, afsona yoki bo'lib o'tgan voqealarni izlab topish va ularni jonlantirib tasavvur etish (masalan, yodgorliklarning qurilishi jarayonlarini);

- O'zbekiston tarixiy-madaniy yodgorliklari bilan bevosita bog'liq bo'lgan, mazmunida ma'lum harakatlar uchraydigan hikoyalar yozish va ular asosida muloqotli, rolli, vaziyatlari; musobaqa-o'yinlar tashkil etish kabilar.

O'quvchilarida kreativlik qobiliyatini rivojlanishda modulli, dasturlashtirish, klaster, insayt, "breystormingli", "girlyanda", "virtual ekskursiya" metodi kabilar ham muhim o'rinni tutadi. Bu xil metodlar qo'llanilganida eksklyuziv

yangilik, tugallanmaganlik, ijodiy davom qildirish, relaksatsiya, to'satdan o'zaro interv'yu olish, kutilmagan so'rov kabi psixologik-pedagogik ta'sirdan oqilona foydalaniadi. O'zbekiston qadimiylar me'morchilik yodgorliklariga (foto-kino-tele – komp'yuter vositasida) "Virtual ekskursiya" uyushtirishda quyidagi o'quv-biluv bosqichlari ketma-ketligiga roya qilinadi.

Virtual metod asosida o'quv materialini bayon qilish jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- me'moriy yodgorlikning funktsiyaviy vazifasining nimalardan iborat ekanligi;
- inshootning maqsadi inshoot qurilgan davrning tarixi va madaniyati;
- yodgorlik tarixi haqida ma'lumot berish; yodgorlikning umumiylar me'moriy, badiiy qiyofasini tavsiflash;
- o'quvchilarining ushbu qadimiylar me'morchilik san'atini emotsiyonal-hissiy (ixtiyoriy) badiiy-tahliliy, algoritmlashgan, estetik (yo'nalgan) idrok qilishi;
- o'quvchilarini yodgorlik milliy boylik, jahon merosi ekanligi to'g'risida mulohaza yuritishga yo'naltirish.

O'qitishning maxsus printsiplariga roya etish hamda ta'lim jarayoniga oqilona rahbarlik qilish orqali o'qituvchi mashg'ulotning yuqori samaradorligini ta'minlaydi. O'quvchilarining guruhli va jamoviylarini tashkil etishda ularga jamoa yutug'i va kamchiligiga umumiylar daxldorlik tuyg'usini singdirish bilan ularni sotsiumga erkin kirib keta olishi, ya'ni ijtimoiylashuvini yo'lga qo'yadi.

REFERENCES

1. Mirziyoev SH. Bugun ma'rifatga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Elektron resurs: <https://www.gazeta.uz/uz/2016/10/19/ustuvor/>. Murojaat sanasi: 05.09.2019.
2. Karimov I.A. Yukcak ma'naviyat – yengilmac kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
3. Muрадова Д.Д. Освоение новых знаний и умений посредством инновационных методов как стержневая основа развития креативности // Халқ таълими. – Тошкент, 2006. – № 1. – 152-155 б.
5. Эстетическое воспитание обучающихся в процессе вне-учебного изучения памятников архитектуры Узбекистана: Пед. фанлари номзоди дисс. автореф. – Т., 1995. – 22 б.
6. Немов Р.С. Психология. Учебник для студентов висш. учеб. заведений. В 2-х кн. Кн.1 – «Общие основы психологии». – М.: Владос, 1994. – 217 б., Кн.2 – Становление личности в ранней юности». – М.: Владос, 1998. – 606 б. - 238-244 б.
7. M.A.Tilakova VIII-IX sinf o'quvchilarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Ped. fanlari doktyu diss . – T., 2019y



INNO SPACE
SJIF Scientific Journal Impact Factor

Impact Factor:
7.569



ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INDIA



INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH

IN SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

9940 572 462 **6381 907 438** **ijirset@gmail.com**

www.ijirset.com



Scan to save the contact details